

килса ҳам, йўк оғиздан чиройли сўзловчи маҳвашимдек бўлолмайди. 7. Агар оташпараस्त руҳоний бир қадах билан мени вайрона ичра расво килса, жоним ором топган бўлар эди. 8. Жунунимни дафъ этгали табиб эмас, азайимхон келтиринг, чунки кимни пари ўзига шайдо килса, уни даволагани, албатта, парийхон керак. 9. Агар сидк аҳли – авлиё инсонларнинг калби ногаҳон Унинг меҳрини фош этса, фалак худди тонг ёғдусидек бир дам ҳам тўхтамай, ўз нуруни сочаверади. 10. Кун юзига тун ўз зулфини паришон килиб ёйса ҳам, эй Навоий, дунё гўзалига асир бўлма!

Ҳазалнинг инглизча таржимаси тағлама ўгирма усулидан фойдаланиб, мутаржим Носиржон Қамбаров томонидан амалга оширилган.

Шуниси эътиборлики, аслиятдаги “наргис кўзи” бирикмаси таржимада “narcissus’s eyes” кўринишида сўзма-сўз ўгирилган. Лекин аслиятда наргис сўзи бир марта ишлатилган бўлса ҳам, таржимада ва ҳазалнинг насрий баёнида наргис сўзи икки бор, такрор қўлланган.

Хуллас, Алишер Навоий кўпинча маъшуқа ёр гўзаллигини тавсифлаш учун гуллар образидан мумтоз поэтик анъаналар доирасида маҳорат билан фойдаланиш баробарида уни янада тараққий топитиришга ҳам эриша олган буюк мутафаккир шоирдир.

Адабиётлар:

1. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 137.
2. Жаҳон адабиёти. Навоий сабоқлари, 2016/5. – Б. 12-16.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA QO'LLANILGAN “BAG'IR” SOMATIZMINING INGLIZCHA VA RUSCHA TARJIMADA BERILISHI

M.I. Gadoeva,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent (BuxDU)

Mumtoz she'riyatda, jumladan, Alisher Navoiy lirikasida eng ko'p qo'llanadigan somatizmlardan biri bag'irdir. O'zbek tilida bag'ir so'zining bir necha ma'nosi bor.

1. O'z ma'nosi: jigar.
2. Ko'chma ma'nosi:
 - a) tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan old qismi; ko'krak, ko'ks, to'sh;
 - b) quchoq; himoya, panoh; yon;
 - v) ulkan, cho'zilgan hududli makon, fazo; qo'yin, quchoq;
 - g) jug'rofiy hududning yon, nishab tomoni.
3. Poetik ma'nosi: yurak, qalb, dil.

Hozirgi o'zbek tilida bag'ir so'zi ishtirokida hosil qilingan *tog' bag'ri, shahar bag'ri, sukunat bag'ri, koinot bag'ri, bag'riga olmoq, bag'riga bosmoq, bag'ri qon, bag'ri xun, bag'ri sovuq, bag'ri qora, bag'ri qattiq, bag'ri keng, bag'ri ezilmoq, bag'ri kuymoq, bag'ri yarim, bag'ri butun, bag'ri dog'li, bag'ri kabob, bag'rini ko'tarib olmoq* singari bir qator ko'chma ma'noli birikmalar, turg'un iboralar keng qo'llaniladi.

Alisher Navoiyning "El dardi yordin kam o'lur ..." g'azalidagi quyidagi baytida "*bag'irni yormoq*" iborasi qo'llangani e'tiborni tortadi:

Jon rishtasini chirmadim o'qungg'a, voykim,

Tig'ing bag'irni yordiyu tikmakka tor yo'q [Navoiy 2016: 3,5,6].

Mazmuni: "Jonimning rishtasini sening o'qingga bog'ladim, lekin dodki, sening tig'ing (xanjaring) bag'rimni yordi, ammo bu jarohatni tikishga bir ip topilmadi".

Ruscha tarjimasi:

Душа послушной нитью вьется вокруг твоей стрелы.

И кровь из раны сердца льется. Зашить – так нити нет.

Inglizcha tarjimasi:

I tied my heart to your arrow, to who can I wail now,

Your edge cut my flesh and blood – no thread to renovate.

Asliyatdagi *bag'ir* so'zi rus va ingliz tiliga tarjima jarayonida *yurak* ma'nosini anglatuvchi *сердца / heart* so'zlari orqali berilgan. To'g'ri, o'zbek tilida *yurak* so'zi *bag'ir*, *qalb*, *dil* so'zlariga sinonim sifatida qo'llanadi. Hatto *yurak-bag'ir* so'zlari yaqin ma'noli so'zlar sifatida juftlashib ham keladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *yurak* so'zining quyidagi bir necha ma'nolarda qo'llanishi ko'rsatilgan:

1. Anatomik atama sifatida odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish tizimidagi muskul qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo.

2. Ko'chma ma'nolarda:

a) kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; *qalb*, *dil*;

b) qo'rqmaslik, jasorat va shu kabilar ramzi;

v) biror narsaning asosi, markazi.

O'zbek tilida *yurak* so'zi ishtirokida shakllangan juda ko'plab iboralar uchraydi.

Bunga *yuragi achimoq* (yoki *yuragi achishmoq*), *yuragi kuymoq*, *yuragi og'rimoq*, *yuragini og'ritmoq*, *yuragini olmoq*, *yuragini zabt etmoq*, *yuragi betlamaslik*, *yuragi betlamoq*, *yuragi botinmoq*, *yuragi yorilmoq*, *yuragi jiz (jig') etmoq*, *yuragi shuv etmoq*, *yuragi zir etmoq*, *yuragi zir titramoq*, *yuragi sezmoq*,

yuragi yo`q, yuragi keng, yuragi tor, yuragi qora, yuragi orziqmoq, yuragi orqasiga tortmoq, yuragi dukillamoq, yuragi o`ynamoq, yuragi po`killamoq, yuragi to`xtamoq, yuragi urmoq, yuragi tepmoq, yuragi siqilmoq, yuragi taka-puka bo`lmoq, yuragi tipirchilamoq, yuragi toshmoq, yuragi yorilmoq, yuragi tutday to`kilmoq, yuragi uvushmoq, yuragi chiqmoq, yuragi chopmoq, yuragi shuv etmoq (yoki yuragi shig` etmoq), yuragi qinidan chiqmoq, yuragi qon, yuragi xunob, yuragiga sig`maslik, yuragi ko`tarolmaslik, yuragiga qo`l solmoq, yuragida kiri yo`q, yuragini bo`shatmoq, yuragini yormoq, yuragini ochmoq, yuragini tirnamoq, yuragini changallamoq, yuragini ezmoq, yuragini hovuchlab turmoq, yurak oldirmoq, yurak yutmoq, yurak bezovtaligi, mamlakatning yuragi, yuragi g`ijimlashi, toza yurak kabilarni misol qilish mumkin.

Bundan tashqari, tilimizda *yurako`ynoq, yurakburug`, yurakog`riq* singari qo`shma yasama, *yurakdosh, yurakli, yuraksiz, yuraksizlik, yuraksinmoq* singari sodda yasama hamda *yurakzada* kabi tub sodda so`zlar ham uchraydi.

“Jigar” so`zi o`zbek tiliga fors-tojik tilidan olingan bo`lib, asl turkiy tildagi bag`ir so`ziga sinonim hisoblanadi.

“O`zbek tilining izohli lug`ati”da *jigar* so`zining quyidagi ma`nolari ko`rsatib o`tilgan:

1. Anatomik termin sifatida odam va hayvonlarning o`t (safro) ishlab chiqaradigan, organizmda moddalar almashinuvini ta`minlaydigan ichki a`zosi nomini anglatadi.

2. Insonlar ovqat sifatida (*qovurma jigar, jigar kabob kabi*) ishlatadigan hayvonlarning shu a`zosi.

3. Ko`chma ma`noda eng yaqin kishi, tug`ishganday yaqin birodar; farzand.

Shunisi e`tiborliki, o`zbek tilida *jigar-bag`ri* so`zlari ham xuddi *yurak-bag`ri* kabi juftlik hosil qilishi kuzatiladi.

Jumladan, xalq orasida *jigar-bag`ri ezilmoq* yoki *yurak-bag`ri ezilmoq, jigar-bag`ridan urmoq* yoki *yurak-bag`ridan urmoq, jigari suv bo`lmoq, jigari xun bo`lmoq, jigari kuygan, jigari yongan* kabi iboralar, *jigarband, jigargo`sha, jigarpora, jigarrang, jigarso`xta, jigarxun, jigarchilik* singari so`zlar uchraydi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, tarjimada o`zbek tilidagi bag`ir so`zini *jigar, yurak* so`zlari bilan ifodalash xatolikni keltirib chiqarmaydi.

Agar o`zbek tilida *lab* somatizmi ikki bor takror qo`llanib, “*labolab*” ko`rinishida ishlatilsa, idishning labi, unga suyuqlik solish me`yori va chegarasini anglatib keladi. Bunga Alisher Navoiyning “*Ey do`stlar ..*” g`azalidan quyidagi baytni misol qilish mumkin:

Do`stluq aylab tutung gah-gah labolab jomkim,

Qaysi jon qilmish manga dardi xumor, ey do`stlar [Navoiy 2016: 3 – 6].

“Ey do`stlar, do`stlik ko`rsatib, menga har dam labigacha may bilan to`la jomni bering, chunki xumor dardi jonimga qasd qilyapti” mazmunidagi ushbu bayt rus va ingliz tillariga quyidagicha tarjima qilingan:

Прошу вас, содвиньте фиалы с вином, пожалейте меня,

Я полон безмерною жаждой – и неутоленной – друзья!

Inglizchasi:

Be my friend and from time to time put a glass into my mouth,

Craving tries to assassinate myself sans satisfaction, hey friends.

Asliyatda hamda ruscha tarjimada og`iz so`zi ishlatilmagan bo`lsa ham, inglizcha tarjimada mutarjim *mouth/ og`iz* so`zini qo`llagan.

Xulosa qilib aytganda, somatizmlar o`zbek tilida inson tana a`zolarining nomlarini ifodalab keluvchi lug`aviy birliklar bo`lib, alohida o`ringa ega. Ular o`zbek tili lug`at boyligining muhim qismi sifatida til va nutqda konnotativ yoki denotativ ma`nolarda qo`llanilib keladi. Shuning uchun ularning tarjimasi alohida e`tiborni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. Азимова М.Н. Сопоставительный анализ соматической лексики и фразеологии таджикского и английского языков: Дисс. . канд. филол. наук. - Ленинабад, 1980. - 184 с.

2. Алеева Г.Х. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, характеризующих внешность человека, в английском и турецком языках: Автореф. дисс. . канд. филол. наук. Казань, 1999. -22 с.

3. Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека, в английском и русском языках и вопросы создания русско-английского фразеологического словаря:

Дисс. докт. филол. наук. -Казань, 1993.-476 с.

4. Гандалоева А.В. Фразеологические единицы с компонентами “голова” и “сердце” в ингушском языке в сопоставлении с английским: Афтореф. дисс. канд. филол. наук. – 2013.

5. Джордж М. Структурные и семантические особенности фразеологических единиц с соматическим компонентом в русском языке в сопоставлении с английским: Автореф. дисс. . канд. филол. наук. М., 1999.- 15 с.

6. Навоий. Эл дарди ёрдин кам ўлур... // Жаҳон адабиёти. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик журнал. – № 10/233, 2016, октябрь. – Б.3, 5, 6.

7. Навоий. Эй дўстлар... // Жаҳон адабиёти. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик журнал. – № 8/231, 2016, август. – Б.3-6.

8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.495.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.127.

NAZM VA NAVODAGI HAMOHANGLIK

Mehrigiyo Jo'rayeva,
BuxDU I bosqich magistranti

Navoiy ijodining sarchashmasi mana necha asrlardan buyon o'zbek va unga qardosh xalqlarning ma'naviy chanqog'ini qondirib, madaniyati yuksalishiga juda katta hissa qo'shib kelmoqda. Necha asrlardan buyon olimlar bu buloqning tubiga yetish uchun izlanishlar olib boradilar, ammo bu izlanishlarning har qatidan yana yangi chashmalar topilaveradi. Xususan, Navoiy buyuk shoir, balki ulug' olim ham edi. U she'r ilmi bilan birgalikda tilshunoslik, tarix, etnografiya, diniy bilimlar hamda musiqa ilmini ham chuqur bilgan. Uning o'zi kuylar bastalab, shu bilan birgalikda ularni sevib ijro ham etgan. Zayniddin Vosifiy "Badoye' ul-vaqoye", Muhammad Mirxond "Ravzat us-safo" hamda G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" asarlarida Navoiyni ulug' musiqashunos deb ta'riflaydilar. Musiqani she'rsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, nazm ham musiqasiz to'kis bo'lmaydi. Bu xusuda Navoiy bobomiz shoirlikni da'vo qilgan inson, avvalo, musiqa ilmidan xabardor bo'lishi kerak, degan fikrda bo'lganlar. Musiqadan xabari bo'lmagan shoirlarni tanqid qilganlar. Xususan, Bobur bu haqda o'zining "Boburnoma" asarida shunday izohlarni keltiradi: "Mavlono Binoiy... burunlar musiqiydan bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta'n qilur ekandur. Bir yil Mirzo (Sulton Husayn Boyqaro) Marvga qishlay borganda Alisherbek ham borur. Binoiy Hiriya qolur. U qish musiqiy mashq qilur, yozgacha oncha bo'lurkim ishlar bog'lar. Yoz Mirzo Hiriya kelganda savt va naqsh o'tkarur. Alisherbek taajjub qilib, tahsin qilur" [Zahiriddin Muhammad Bobur, 1960: 336]. Bu haqda Navoiyning o'zi "Majolis-un-nafois"da quyidagicha fikr keltiradi: "Mavlono Binoiy – avsot un-nosdindur, mualladi Hiriya shahridur. Bag'oyat qobiliyati bor...Oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ng ilmi musiqiyg'a mayl ko'rguzdi. Advor ilmi bilan bot o'ganib, xil ishlar tasnif qilib advorda dag'i risola bitidi..." [Alisher Navoiy, 1996: 108]. Bu jihatdan Binoiy musiqa ilmida Navoiyning shogirdi deyiladi. Keyinchalik Kamoliddin Binoiy o'zining "Risola dar musiqiy"sida, Zaynulobidin Husayniy "Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy"sida Navoiyning lutfi, saxovati, iymon-e'tiqodini ulug'lab madhiyalar bag'ishlaganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy shoirlikni da'vo qiluvchilar ilmi musiqiydan xabardor bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Chunki o'sha vaqtda, bilamizki, aruz vaznida ijod qilingan. Aruz vazni esa hijolarning qisqa-